O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 3 - fevral 62-10-0-Q/22 Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi hududida chegara zonasi va chegara mintaqasini belgilashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida

“O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021 yil 4 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi hududida chegara zonasi va chegara mintaqasini belgilashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 735-sonli qaroriga muvofiq Toshkent viloyati hududi bo‘ylab chegara zonasi va chegara mintaqasini belgilash, chegara rejimini joriy etish hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6,25-moddalariga asosan qaror qilaman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021 yil 4 dekabrdagi 735-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 18 va 19-moddalariga muvofiq; chegara zonasi va chegara mintaqasini belgilash tartibi, shuningdek, chegara rejimi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga ko‘ra:

chegara zonasi va chegara mintaqasining doirasi, shuningdek, chegara zonasiga kiradigan tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, temir yo‘l stantsiyalari, aeroportlar va boshqa ob’ektlar ro‘yxati Ichki ishlar bosh boshqarmasi hamda Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlarining takliflari asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini delimitatsiya, demarkatsiya va redemarkatsiya qilish, chegara muammolarini xal etish, noqonuniy migratsiyani, viloyat hududiga tovarlar va kontrakt maxsulotlarini noqonuniy olib

kirishga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha viloyat hokimligi xuzuridagi hududiy komissiya (keyingi o‘rinlarda - hududiy komissiya) tomonidan tegishli hududlar bo‘yicha aniqlanadi va belgilanadi;

hududiy komissiyaning chegara zonasi va chegara mintakasini belgilash to‘g‘risidagi qarorlari Toshkent viloyati xalq deputatlari viloyat Kengashiga tasdiklash uchun kiritiladi.

4. Hududiy komissiya 2022 yil 1 fevralga qadar chegara zonasi va chegara mintaqasini aniqlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirsin, viloyat hududi bo‘ylab chegara zonasi va chegara mintaqasini belgilash to‘g‘risida tegishli qaror qabul qilsin hamda belgilangan tartibda tasdiqlash uchun tegishlicha Toshkent viloyat xalq deputatlari viloyat Kengashi muhokamasiga kiritsin.

5. Tuman va shahar hokimliklari Ichki ishlar bo‘limlari, Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari bilan birgalikda:

2022 yil 1 aprelga qadar Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agenligining Toshkent viloyati boshqarmasi bilan birgalikda joylarda chegara zonasi va chegara mintaqasi chizigini belgilasin va kirish joylarida ogohlantiruvchi hamda axborot belgilarini o‘rnatish choralarini ko‘rsin;

chegara zonasi va chegara mintaqasida Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 5 iyuldagi 504-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekistan Respublikasi hududida chegara rejimi to‘g‘risidagi nizomning talablari bajarilishini ta’minlasin.

6. Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agenligining Toshkent viloyati boshqarmasi (R.Payziev) Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari va Ichki ishlar bosh boshqarmasi bilan birgalikda joylarda foydalanishi uchun, chegara zonasi va chegara mintaqasining o‘tish chizig‘i topografik xaritalarini (tavsifi bilan) tayyorlasin va ularni 2022 yil 1 iyunga qadar Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlariga foydalanish uchun taqdim etsin.

7. Belgilansinki, ushbu qarorning:

4-bandida nazarda tutilgan tadbirlar - Davlat byudjetidan viloyat hokimligi, Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari va Ichki ishlar boshqarmasiga har yili ajratiladigan mablag‘lar hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan;

5-bandida nazarda tutilgan tadbirlar - Davlat solik qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligiga Davlat byudjetidan har yili ajratiladigan mablag‘lar va

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

8. Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 5 iyuldagi 504-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekistan Respublikasi hududida chegara rejimi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

9. Vazirlar Maxkamasining “O‘zbekistan Respublikasi hududida chegara zonasi o‘rnatilgan ma’muriy-hududiy birliklar, temir yo‘l stantsiyalari va aeroportlarning ro‘yxatini e’lon qilish to‘g‘risida”gi 2021 yil 11 fevraldagi 63-son qarori 2022 yil 1 apreldan boshlab o‘z kuchini yo‘qotganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

10. Boshqarmalar va bo‘limlar o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

11. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Maxmudov zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati hokimi v.b. **Z.Mirzayev**